

K. PALENNING TAFTISH MATERIALLARIDA SAMARQAND VILOYATIDAGI TOG'-KONCHILIK ISHLARI XUSUSIDA

 [10.70728/tech.v2.i03.032](https://doi.org/10.70728/tech.v2.i03.032)

Xamidova Xuriyatxon G'afurjon qizi

Ijtimoiy va siyosiy fanlar institute katta o'qituvchi

e-mail: begmurodovahurriyat@gmail.com

Annotatsiya: XIX asr ikkinchi yarmida Rossiya imperiyasining Turkiston mintaqasida olib borgan yer osti boyliklarini tasarruf etish bilan bog'liq strategiyasi muhim o'rin tutgan edi. XX asr boshlarida Turkiston o'lkasida taftish o'tkazgan senator K. Palenning faoliyati o'ziga xos bo'lib, u tog'-kon ishlarining yo'lga qo'yilishi borasidagi hisobotida sohaga oid ma'lumotlarni umumlashtirishga harakat qilgan edi. Imperiya hukumati tabiiy zahiralarni qayta ishlashdan keladigan foydani to'liq nazorat qilish maqsadida minerallar uchrashi mumkin bo'lgan yerlarni tadbirkor va sarmoyadorlarga bo'lib berishga harakat qilgan.

Rossiya imperiyasi dastlabki davrlarda ko'pgina konlardan aholining foydalanishiga yo'l qo'yib berilgan. Biroq vaqt o'tishi bilan ahamiyati va ko'lami jihatidan yirik bo'lgan konlar mustamlaka davlat ixtiyoriga olinib boshlagan. Bu esa asosan tirikchiligi konchilik bilan bog'liq bo'lgan aholining shusiz ham qiyin ahvolini yanada og'irlashtirgan edi.

Maqolada ushbu jarayonlar bilan bog'liq masalalar rasmiy manbalar asosida tahlil etiladi.

Kalit so'zlar: K. Palen, Samarqand, Xo'jand, Ko'hi Malik, verst, Mishenkov, Sorvad qal'asi, tog'-konchilik, toshko'mir, neft, osh tuzi, tabiiy boyliklar, foydali qazilmalar.

МАТЕРИАЛЫ ИССЛЕДОВАНИЯ К. ПАЛЕНА ПО ГОРНЫМ РАБОТАМ В САМАРКАНДСКОЙ ОБЛАСТИ

Аннотация: Во второй половине XIX века важную роль сыграла стратегия Российской империи по освоению недр Туркестанского края. Уникальна работа сенатора К. Палена, проводившего инспекцию в Туркестане в начале XX века. В своем отчете об учреждении горных работ он попытался обобщить сведения о промышленности. Имперское правительство пыталось разделить земли, где можно было найти полезные ископаемые, между предпринимателями и инвесторами, чтобы получить полный контроль над прибылью от переработки природных ресурсов.

В первые годы существования Российской империи многие шахты были разрешены для общественного пользования. Однако со временем крупные по

масштабам и значению рудники стали переходить в руки колониального государства. Это еще больше усугубило и без того тяжелое положение населения, чья жизнь в основном связана с добычей полезных ископаемых.

В статье на основе официальных источников анализируются вопросы, связанные с этими процессами.

Ключевые слова: К. Пален, Самарканд, Ходжент, Кохи Малик, верста, Мишенков, крепость Сорвад, горное дело, уголь, нефть, поваренная соль, природные ресурсы, полезные ископаемые.

INVESTIGATION MATERIALS OF K. PALEN ON MINING WORKS IN SAMARKAND REGION

Annotation: In the second half of the 19th century, the Russian Empire's strategy for the management of subsoil resources in the Turkestan region played an important role. The work of Senator K. Palen, who conducted an inspection in the Turkestan region at the beginning of the 20th century, was unique, and in his report on the establishment of mining operations, he tried to summarize information about the industry. In order to fully control the profits from the processing of natural resources, the imperial government tried to allocate lands where minerals could be found to entrepreneurs and investors.

In the early days of the Russian Empire, many mines were allowed to be used by the population. However, over time, mines that were large in terms of importance and scale began to be taken over by the colonial state. This further aggravated the already difficult situation of the population, whose livelihood was mainly related to mining.

The article analyzes the issues related to these processes based on official sources.

Keywords: K. Palen, Samarkand, Khujand, Kokhi Malik, verst, Mishenkov, Sorvad fortress, mining, coal, oil, table salt, natural resources, minerals.

KIRISH

XIX asrning ikkinchi yarmida Rossiya imperiyasining Turkiston mintaqasini zabt etishdan koʻzlagan koʻzlagan maqsadlari orasida oʻlkadagi yer osti boyliklarini tasarruf etish bilan bogʻliq strategiyasi muhim oʻrin tutgan edi. Shundan kelib chiqib, istilodan soʻng bu yerdagi qazilma boyliklarni aniqlash, ishga tushirish va togʻ-kon sanoatini oʻz manfaatlariga mos ravishda yoʻlga qoʻyishga qattiq kirishildi. Shu bilan birga, bu sohadag ishlarni yoʻlga qoʻyishga bagʻishlangan oʻnlab adabiyotlar yuzaga keldi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLARNING TAHLILI

XX asr boshlarida Turkiston o'lkasida taftish o'tkazgan senator K. Palenning faoliyati o'ziga xos bo'lib, u tog'-kon ishlarining yo'lga qo'yilishi borasidagi hisobotida sohaga oid ma'lumotlarni umumlashtirishga harakat qilgan edi²². Shu ma'noda, K. Palenning hisoboti o'lkaning o'sha davrdagi tog'-konchilik ishlari bilan bir qatorda, imperiyaning sohaga oid siyosatini tadqiq etishda muhim manba bo'lib xizmat qiladi. Turkiston o'lkasidagi tog'-konchilik ishiga bag'ishlangan hisobotini yaratishda K. Palen o'lkada geologik izlanishlar olib borgan V. Mushketov, G. Romanovskiy va boshqa tadqiqotchilar hamda tog'-kon sanoati bilan mashg'ul bo'lgan shaxslarning ma'lumotlaridan foydalangan.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

K. Palenning ma'lumotiga ko'ra, Samarqand viloyatida ko'mir konlari ko'p bo'lib, ularning ayrimlari o'zining kattaligi bilan ajralib turgan. Ko'mir konlari viloyatning asosan Samarqand va Xo'jand uyezdlarida uchragan.

Samarqand uyezdining Sorvad qal'asi yaqinida, Pastrud daryosining chap qirg'og'ida qo'ng'ir ko'mir konlari joylashgan. Bundan tashqari, Yaknav daryosi bo'ylarida, Ko'hi Malik tog'larida ham ko'mir konlari joylashgan bo'lib, aholi azaldan ulardan foydalanib kelgan. O'sha yerlik aholining ma'lumot berishicha, Ko'hi Malik tog'laridan ilgarilari olov va tutun chiqib turgan va xalq orasida u "olovli tog'" deb atalgan. Samarqand uyezdida, Zarafshon daryosining yana bir oqimi – Qishtut havzasida ham ko'mir konlari topilgan. Bu yerda olingan ko'mir sifatli bo'lib, qattiqligi, yaxshi va uzoq yonishi bilan boshqalardan ustun turgan. Ko'mirning sifati Xarkov Texnologiya institutida tekshirilgan. Ushbu kon O'rta Osiyo temir yo'lining Rostovsevo bekatiga yaqin bo'lib, undan mustamlakachilar tomonidan katta miqdordagi ko'mir qazib olingan. Kon egalarining hisob-kitoblariga ko'ra, bu yerda 159 mln pud ko'mir zaxiralari mavjud edi. Qazib olingan ko'mirni kondan temir yo'lga olib borish uchun Rostovsevo stansiyasigacha osma dor yo'li qurilgan. Konni ishga tushirish maqsadida 1500 ming sarmoyaga ega bo'lgan "Turkiston Toshko'mir va tog'-kon sanoati jaamiyati" tashkil etilgan. Biroq K. Palenning taftish xulosalariga ko'ra, osma dor yo'li qimmatga tushganligi sababli o'sha paytda jamiyat yopilish arafasida turgan edi²³

Samarqand uyezdida mis ham uchragan. O'ratepa shahridan 2-3 verst²⁴ janubda kattagina mis konlari borligi aniqlangan²⁵. Samarqandning janubi-g'arbidan 18 verst

²² Пален К. Горное дело. Отчет по ревизии Туркестанского края, произведенной по высочайшему повелению сенатором гофмейстером графом К.К. паленом. СПб, Сенатская типография, 1910.

²³ Пален К. Горное дело. Введение. СПб, Сенатская типография, 1910. С. 34-36.

²⁴ 1 верст – 1,06 км.га тенг узунлик ўлчови.

²⁵ Пален К. Горное дело. Введение ... С. 124-125.

uzoqlikda joylashgan Kepakko‘l qishlog‘i yaqinidagi Qoratepa tizmalarining etagida grafit konlari aniqlangan. Shuningdek, Sazog‘on qishlog‘ida ham grafit uchragan²⁶.

Aholi Samarqand uyezdidagi Sorvad qal‘asiga yaqin masofada joylashgan Xon tog‘lari cho‘qqilaridan oltingugurt va nashatir qazib olib, ishlatgan²⁷ Ushbu hududni geologik jihatdan o‘rgangan D. Mishenkov ham bu haqda to‘xtalib o‘tar ekan, bu yedan oltingugurt qazib olish bilan beklarning o‘zlari shug‘ullanganliklarini qayd etadi. Buning uchun bek qo‘shni qishloqlar aholisini yiliga uch marta ishga chaqirgan, aholi teshiklardan oqib tushib, toshlarda yig‘ilib qolgan oltingugurti to‘plab olgan.

So‘z qimmatbaho metall – oltin haqida borar ekan, K. Palen o‘z asarida Samarqand viloyati bo‘yicha alohida to‘xtalmaydi, ammo oltin Zarafshonning butun oqimi bo‘ylab mayda zarra shaklida uchrashiini aytib o‘tadi. Ammo, boshqa ko‘plab manbalarda Zarafshon daryosidan aholi azaldan oddiy yo‘l bilan oltin qumlarini yuvib, ushbu qimmatbaho metallni qo‘lga kiritganligi aytib o‘tiladi. Xususan, D. Mishenkov Zarafshonning eng katta oqimi Fandaryo ekanligini, u o‘z navbatida Yaknav va Iskandar daryolarining qo‘shilishidan hosil bo‘lganini, bu yerlarda oltin, kvas va oltingugurt kabi qazilmalar uchrashi va olinishini ta’kidlaydi. Uning ma’lumot berishicha, bu yerda oltin zarra yoki yupqa plastinka shaklida uchraydi. Shuningdek, oltin qumlari Zarafshon suvlari bilan oqib keladi yoki daryo qirg‘og‘idagi qumlar tarkibida bo‘lib, ayrim joylarda ularni suv yuvib turadi. Aholiga bu yerda oltin yuvishga bimalol ruxsat etilgan, chunki uning miqdori juda kam bo‘lib, 4 kishidan iborat artel a’zolari “eng omadi chopgan kunlari” davomida bor-yo‘g‘i 4 qo‘qon qiymatga ega oltin qumi yuvib olishlari mumkin edi. Shuning uchun ham bu yerda aholining eng kambag‘al va yersiz qatlamlari oltin izlash bilan mashg‘ul bo‘ladilar²⁸. Mazkur muallifning ma’lumotlariga ko‘ra, Samarqand viloyatining ushbu hududlaridagi ayrim qishloqlarda kvass qazib olish dehqonchilikdan keyingi eng serdaromad va keng tarqalgan soha hisoblanadi. Ushbu ish bilan shug‘ullanishni istagan har bir kishi bekka 5-20 kopeyek to‘lashi lozim bo‘lgan. Ayrim hollarda bu ish orqasidan yiliga 20 ming qo‘qongacha daromad qilish mumkin bo‘lgan. 4-5 kishi birgalikda qishning uch oyi davomida 50 pud²⁹gacha kvass qazib oladilar. Ular shu yerning o‘zida mahalliy vositachilar tomonidan har pud 16-20 qo‘qondan sotib olinadi yoki Panjikent va Samarqand bozorlariga olib borib sotiladi. Boshqa ma’lumotlarga ko‘ra, har bir qishloqdan bekka soliq sifatida bir pudga yaqin kvass berilgan³⁰. Shuningdek, Sorvad qal‘asidan 6 verst uzoqlikdagi hududda, Yaknav

²⁶ Пален К. Горное дело. Введение ... С. 123-124.

²⁷ Пален К. Горное дело. Введение ... С. 103.

²⁸ Мышенков Д. Геологические заметки из дневника по экспедиции к верховьям Заравшана // Материалы для статистики Туркестанского края. Ежегодник. Под ред. Н.А. Маева. Выпуск II. СПб, 1873. С. 137-138.

²⁹ 1 пуд – 16, 380 килограммга тенг оғирлик ўлчови.

³⁰ Мышенков Д. Геологические заметки из дневника по экспедиции к верховьям Заравшана ... С. 138.

daryosi yuqori qismida temir rudasi va toshko‘mirning salmoqli konlari aniqlangan, biroq aholi manzillari va qulay yo‘llardan uzoqligi ulardan foydalanish imkonini bermagan³¹.

K.Palen Samarqand viloyatida feruza minerali ham uchrashini qayd etgan. Uning ma‘lumot berishicha, Samarqanddan Jom orqali Buxoro amirligiga tegishli bo‘lgan Qarshi shahriga ketaverishda Ibrohimota degan qishloq yaqinida feruza konlari joylashgan. Bu yerda 1-5 mm qalinlikdagi feruza uchragan, ayrim yerlarda esa uning kattaligi bodomday edi. Uning rangi yashil, yashiltob-havorang va och havorang tuslarida bo‘lgan³².

Viloyatda ko‘p uchraydigan qazilma manbalardan biri tuz bo‘lib, Jizzax va Xo‘jand uyezdlarida qazib olingan. Jizzax shahridan 60 verst uzoqlikdagi Ko‘ktepa qishlog‘ida Tuzkon ko‘li bo‘lib, Nurota tizmasining Pistalitog‘ tog‘i hududlarida joylashgan. Tuzkon ko‘lining uch hududidan osh tuzi qazib olingan va o‘troq hamda ko‘chmanchi aholi tomonidan tasarruf qilingan. Ko‘lga sahro bo‘ylab borgan yo‘ldan arava qatnashi imkoni bor edi. Bu yerdan yiliga 200 ming pud tuz qazib olingan. 8 pudni o‘z ichiga olgan bir botmon tuzning narxi 30 kop.dan 1 rublgacha yetgan³³. K. Palenning ma‘lumot berishicha, ushbu ko‘lning yana bir ahamiyatli tomoni bo‘lib, uning qirg‘oqlaridagi loy shifobaxsh hisoblangan va aholi davolanish maqsadida ham bu yerga kelib turgan.

Dastlab Tuzkon ko‘lidan tuz qazib olish aholi uchun chegaralanmagan bo‘lsa, keyinchalik bu tartibga o‘zgartirishlar kiritilgan. Xususan, ziroatchilik va davlat mulklari vazirligining 1899 yil 20 martdagi buyrug‘i asosida Tuzkon ko‘lidan foydalanish huquqi davlat ixtiyoriga o‘tkazilgan va aholiga tuz qazib olish man etilgan³⁴. Bundan ko‘zlangan maqsad shu ediki, mustamlaka hukumat yer osti boyliklarini qazib olishni o‘z nazoratiga olish va sohadan keladigan daromadni o‘zlashtirish uchun sohani tadbirkorlarga topshirishni ko‘zlangan edi.

Manbalarda qayd etilishicha, Xo‘jand uyezdida ham tuz konlari ko‘p bo‘lib, ulardan biri Xo‘jand shahri yaqinidagi qishloqda joylashgan va aholi ehtiyojlari uchun ishlatilgan. Shu o‘rinda aytib o‘tish joizki, K. Palen to 1895 yilga qadar Turkiston o‘lkasidagi tuz konlari haqidagi ma‘lumotlar to‘liq bo‘lmaganligini, faqat keyingi davrlardagina bu haqda ko‘proq ma‘lum qilinganligini, chunki bu davrda konlar ustidan nazorat okrug tog‘-kon injeneri zimmasiga yuklanganligini ta’kidlab o‘tgan.

Buxoro amirligi chegaralarida ham tuz konlari mashhur bo‘lib, ulardan biri Darbanddan Qarshiga ketaverishdagi hududda, Chak-sak vodiysida joylashgan. Bundan

³¹ Мышенков Д. Геологические заметки из дневника по экспедиции к верховьям Заравшана ... С. 138.

³² Пален К. Горное дело. Введение. СПб, Сенатская типография, 1910. С. 122.

³³ Пален К. Горное дело ... С. 110.

³⁴ Пален К. Горное дело ... С. 197.

sal uzoqroqdagi Bo'z qishlog'i, shuningdek, Amudaryoga yaqin Kelif hamda Vaxsh daryosi yaqinidagi Nurak qal'asi atrofida ham tuz konlari mavjud bo'lgan³⁵.

Ko'rib o'tilganidek, Turkiston milliy qazilma boyliklarini aniqlash va ulardan imperiya manfaatlari yo'lida foydalanish keng miqyosda amalga oshirilgan. Turkiston hududidagi tabiiy xomashyo manbalari va qazilma boyliklarni aniqlash, ularning tarkibini tekshirish maqsadida ko'plab rossiyalik olimlar jalb etilgan, hattoki topilgan ma'danlar imperiya markaziga yuborilib, ilmiy asosda tekshirib ko'rilgan.

XULOSA

Dastlabki davrlarda ko'pgina konlardan aholining foydalanishiga yo'l qo'yib berilgan. Biroq vaqt o'tishi bilan ahamiyati va ko'lami jihatidan yirik bo'lgan konlar mustamlaka davlat ixtiyoriga olinib boshlagan. Bu esa asosan tirikchiligi konchilik bilan bog'liq bo'lgan aholining shusiz ham qiyin ahvolini yanada og'irlashtirgan. Shu bilan birga, imperiya hukumati tabiiy zahiralarini qayta ishlashdan keladigan foydani to'liq nazorat qilish maqsadida minerallar uchrashi mumkin bo'lgan yerlarni tadbirkor va sarmoyadorlarga bo'lib berishga harakat qilgan.

Shuni alohida qayd etib o'tish lozimki, aniqlangan konlarni ishga tushirishda ularning temir yo'llarga yaqin bo'lishiga katta e'tibor qaratilgan. Chunki, temir yo'llar yuk tashishni osonlashtirish bilan birga, qazib olingan tabiiy resurslarni mahalliy iste'molchilardan tashqari, Rossiya imperiyasi hududiga katta miqdorda olib ketilishini ta'minlagan. Shu tariqa, Rossiya imperiyasining Turkiston mintaqasini bosib olishdan ko'zlagan maqsadlari orasidagi o'lka tog'-kon boyliklarini tasarruf etish strategiyasi amalga oshirilgan va u ko'zlangan natijani bergan, deb xulosa qilish mumkin. Turkiston o'lkasi boshqaruvini har tomonlama taftish qilgan senator K. Palenning tog'-konchilik sanoatiga alohida e'tibor qaratgani va bu masalaga o'zining alohida hisobotini bag'ishlagani fikrimizga dalil bo'la oladi.

Foydalanilgan manba va adabiyotlar

1. Пален К. Горное дело. Отчет по ревизии Туркестанского края, произведенной по высочайшему повелению сенатором гофмейстером графом К.К. паленом. СПб, Сенатская типография, 1910.

2. Мышенков Д. Геологические заметки из дневника по экспедиции к верховьям Заравшана // Материалы для статистики Туркестанского края. Ежегодник. Под ред. Н.А. Маева. Выпуск II. СПб, 1873.

³⁵ Пален К. Горное дело Чакчак долины ... С. 110.

3. Mushketov I.V. Turkestan. Geologicheskoe i orograficheskie opisanie po dannim sobrannim vo vremya puteshestviy s 1874 po 1880 g. T.1. V dvux chastyah. – SPb., Tipografiya M.M.Stasyulevicha, 1886.

4. Ўзбекистон ҳудудида табиий фанлар йўналишидаги илмий тадқиқот ва экспедициялар (XIX – XX аср бошлари). Лойиҳа раҳбари Д.Х. Зияева. Тошкент: “Akademnashr”, 2019. 416 б

5. А. Тоғаева. Рус олимларининг геологияга оид тадқиқотлари. Б. 148-186.